

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 7 - dekabr

442-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktyabrdagi  
“Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish  
bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi  
PQ-343-sonli qarori haqida**

Respublika iste'molchilarini toza va sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash hamda oqova suv xizmatlarini yaxshilash borasida ko'rilayotgan izchil choralarni yanada jadallashtirish, ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari qamrovini oshirish, sohaning transformatsiya jarayonini jadallashtirish hamda korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ahvolini yanada mustahkamlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktyabrdagi “Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-343-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini takomillashtirish bo'yicha “yo'l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq;

Respublikadagi ichimlik suv ta'minoti og'ir bo'lgan mahallalarning 2024 — 2026-yillarda ichimlik suv ta'minotini yaxshilash dasturi 2-ilovaga muvofiq;

2024 — 2026-yillarda respublika hududlarida ichimlik suv tarmoqlarini uy xo'jaligigacha yetkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 3-ilovaga muvofiq;

2024 — 2026-yillarda davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish orqali ichimlik suv ta'minoti yo'lga qo'yiladigan aholi yashash punktlari ro'yxati 4-ilovaga muvofiq;

“O'zsuvta'minot” AJ tomonidan xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga

oshirilayotgan loyihalar hisobiga 2026-yilda aholini ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta'minlash dasturi 5-ilovaga muvofiq;

Markazlashgan suv ta'minoti qamrovi darajasi past bo'lgan tumanlarda 2024 — 2026-yillarda ichimlik suv tizimlarini rivojlantirish dasturining yig'ma parametrlari 6-ilovaga muvofiq;

2024 — 2026-yillarda iste'molchilarga ichimlik suv uchun hisoblagichlarni o'rnatish reja-jadvali 7-ilovaga muvofiq;

2024-yilda "O'zsuvta'minot" AJ tizim korxonalarini obyektlarida quyosh panellarini o'rnatish reja-jadvali 8-ilovaga muvofiq;

2024 — 2026-yillarda "O'zsuvta'minot" AJ tizim korxonalarini obyektlaridagi mavjud nasoslarni energiya tejamkor nasoslarga almashtirish reja-jadvali 9-ilovaga muvofiq;

2026-yilda "O'zsuvta'minot" AJ tarkibidagi laboratoriyalarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash dasturi 10-ilovaga muvofiq;

"O'zsuvta'minot" AJ va uning tizim korxonalariga o'tkaziladigan ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimi obyektlari ro'yxati 11-ilovaga muvofiq;

"O'zsuvta'minot" AJ korxonalarining "Hududiy elektr tarmoqlari" AJga o'tkaziladigan nimstansiyalari ro'yxati 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ushbu qarorda:

- 5-ilovada ko'rsatilgan tadbirlar uchun talab qilinadigan mablag'lar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va "O'zsuvta'minot" AJ tomonidan teng ulushlarda ajratiladi;

- 2, 3, 7, 8 va 9-ilovalarda belgilangan chora-tadbirlar "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCHJ tomonidan tuman (shahar)lar kesimida ishlab chiqilib, tasdiqlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga taqdim etiladi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari (Sh.Dauletiyarov), "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCHJ (Q.Xalmuratov) Nukus shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

Davlat budjeti va davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lar hisobiga amalga oshirilayotgan ichimlik va oqova suv yo'nalishidagi loyihalar bo'yicha texnik topshiriq shartlarini ishlab chiqishda eng maqbul texnik yechimlar, o'zioqar usuli, zamonaviy energiya tejamkor materiallar va texnologiyalar keng qo'llanilishini hamda har bir loyiha qiymatidan ortiqcha xarajatlar chiqarib tashlanishini doimiy

ravishda ta'minlab borsin;

2023-yil yakuniga qadar davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan ichimlik va oqova suv yo'nalishidagi loyihalarni chuqur tahlil qilib, ularning keng jamoatchilik bilan muhokama qilinishini va qiymati maqbullashtirilishini ta'minlasin.

4. "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCHJ (Q.Xalmuratov), "Suv ta'minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" UK (N.Sultanov) 2024-yil 1-fevraldan boshlab Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ichimlik va oqova suv yo'nalishidagi loyihalar doirasida qurilish materiallari, uskuna va jihozlar 13-ilovaga muvofiq faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish choralarini ko'rsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari (Sh.Dauletiyarov) bir oy muddatda mazkur qaror qabul qilingunga qadar "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCHJ tashkilotining moddiy-texnika bazasini yaxshilash uchun xarid qilingan mol-mulklarning ushbu tashkilotga o'tkazilishini ta'minlasin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari (Sh.Dauletiyarov) hamda Nukus shahar va tumanlar hokimlarining ichimlik suv ta'minoti va oqova suv sohasidagi qo'shimcha vazifalari 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari (Sh.Dauletiyarov) xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida tovar, ish va xizmatlarni sotib olish bo'yicha xarid komissiyasi tarkibiga kiritish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining kamida 2 nafar xodimini va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni "O'zsuvta'minot" AJga taqdim etsin.

7. Quyidagilarga:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari N.Erlepesovga — "yo'l xaritasi" va mazkur qarorga ilovalarda belgilangan chora-tadbirlarga, shu jumladan ijtimoiy buyurtma asosida amalga oshiriladigan, energiya tejamkor uskunalarni o'rnatish hamda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va boshqa dasturlar doirasida ichimlik va oqova suv obyektlariga Davlat budjetidan zarur mablag'larning belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda ajratilishi yuzasidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarovga — "yo'l xaritasi" va mazkur qarorga ilovalarda belgilangan

chora-tadbirlar o‘z muddatida va sifatli amalga oshirilishining muvofiqlashtirilishi, shu jumladan avvalgi yillardan o‘tib kelayotgan obyektlarni belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirish, ichimlik va oqova suv obyektlariga ajratilayotgan mablag‘lardan samarali foydalangan holda obyektlar qurilish ishlari tannarxini arzonlashtirish yuzasidan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari A.Oteuliyevga — xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari hamda boshqa kredit muassasalari mablag‘lari hisobidan ichimlik va oqova suv obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash bo‘yicha amalga oshiriladigan loyihalar uchun xorijiy investitsiya va imtiyozli kredit mablag‘larining belgilangan muddatlarda jalb etilishi yuzasidan;

“Qoraqalpoq suv ta‘minoti” MCHJ Q.Xalmuratovga — belgilangan chora-tadbirlarning o‘z muddatida va sifatli amalga oshirilishi, sohaga energiya tejamkor hamda ilg‘or raqamli texnologiyalar joriy etilishi, ichimlik va oqova suv obyektlarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari tannarxining kamaytirilishi, qamrov va suv sifati darajasi oshirib borilishi, laboratoriyalarning jihozlanishi, suv yo‘qotishlarining kamaytirilishi, kadrlarni tayyorlash, ichimlik va oqova suv ta‘minoti sohasiga oid normativ-huquqiy baza takomillashtirilishi yuzasidan shaxsiy mas‘uliyat yuklansin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimini takomillashtirish bo'yicha  
"YO'L XARITASI"**

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirlar</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Ijro uchun mas'ullar</b>
<b>Ichimlik suv ta'minoti tashkilotlarining ichimlik suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish sohasidagi xizmatini kengaytirish</b>				
1.	Bittadan shahar yoki tumanda ichimlik suvni ishlab chiqarishdan boshlab yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan tizimni samarali nazorat qilish va yo'qotishlarni kamaytirish bo'yicha namunali tizimni joriy etish.	<p>1. Tanlangan hududda mavjud ichimlik suv inshootlari, tarmoqlari va yakuniy iste'molchilarni to'liq suv hisoblagichlar bilan jihozlash.</p> <p>Bunda, yakuniy iste'molchilar ko'rsatkichlarini to'siqlarsiz olinishi uchun hisoblagichlarni xonadonlar tashqarisiga o'rnatilishini inobatga olish.</p> <p>2. Ichimlik suvni ishlab chiqarishdan boshlab yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonda yo'qotishlar hajmini minimal darajaga tushirish.</p>	<p>2024-yil 1-sentabr</p> <p>2024-yil 1-dekabr</p>	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari (Sh.Dauletiyarov), "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCHJ, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari
2.	Ichimlik suv va oqova obyektlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish.	<p>Mavjud ichimlik suv va oqova suv obyektlarining to'liq xatlovi natijasida ularning eskirish darajasidan kelib chiqib, 2024 — 2026-yillarda modernizatsiya va rekonstruksiya qilinadigan obyektlar ro'yxatini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>Bunda, mazkur obyektlarni rekonstruksiya qilish xarajatlari magistral suv tarmoqlari, hududiy suv ishlab chiqarish va suv ta'minoti tashkilotlarining tariflarida inobatga olinishi ta'minlanadi.</p>	2024-yil 1-yanvar	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCHJ, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari
3.	Ichimlik suv va oqova suv inshootlari hamda tarmoqlarini xatlovdan o'tkazish.	Ichimlik suv va oqova suv inshootlari hamda tarmoqlarini xatlovdan o'tkazish hamda ularni yangi tashkil etilayotgan tashkilotlarga o'tkazish.	2024-yil 1-fevral	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCHJ, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
<b>Korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish hamda sohaning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish</b>				
4.	Aholi punktlarini maxsus avtotransport vositalari orqali ichimlik suv bilan ta'minlash hamda ichimlik suv ta'minoti tashkilotlarining dispetcherlik va avariya xizmati faoliyatini takomillashtirish.	1. Raqamlashtirish vositalarini joriy qilgan holda tadbirkorlik subyektlari tomonidan markazlashgan ichimlik suv ta'minoti yetib bormagan aholi punktlarini maxsus avtotransport vositalari orqali ichimlik suv bilan ta'minlash choralarini takomillashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2023-yil 1-dekabr	“Qoraqalpoq suv ta'minoti” MCHJ, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari
		2. Axborot texnologiyalarni qo'llagan holda mavjud avtomobil va maxsus texnika parkini real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan yagona kuzatish tizimiga (GPS) ulash choralarini ko'rish.	2024-yil 1-yanvar	



Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

**Respublikadagi ichimlik suv ta'minoti og'ir bo'lgan mahallalarning 2024 — 2026-yillarda ichimlik suv ta'minotini yaxshilash  
DASTURI**

T/r	Hududlar nomi	2024 — 2026-yilda ichimlik suv bilan ta'minlanadigan og'ir mahallalar soni			
		mahalla soni	shu jumladan:		
			“O'zsuvta'minot” AJ mas'ulligida davlat maqsadli dasturlari doirasida	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi mas'ulligida davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida	Hokimlar mas'ulligida (mahalliy budjet, tashabbusli budjet va h.k.)
	<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>813</b>	<b>590</b>	<b>130</b>	<b>93</b>
	<i>shu jumladan:</i>				
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	109	76	22	11

Izoh: “Qoraqalpoq suv ta'minoti” MCH tomonidan tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda ichimlik suv bilan ta'minlanadigan og'ir mahallalarga aniqlik kiritiladi hamda tasdiqlash uchun Vazirlar Kengashiga taqdim etiladi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
3-ilova

**2024 — 2026-yillarda respublika hududlarida ichimlik suv tarmoqlarini uy xo'jaligigacha yetkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi**

T/r	Hududlar nomi	Ichimlik suvi tarmoqlarini uy xo'jaligigacha yetkazish bo'yicha xonadonlar soni	Yillar kesimida		
			2024-yil	2025-yil	2026-yil
<b>Respublika bo'yicha jami:</b>		<b>124 693</b>	<b>34 120</b>	<b>41 390</b>	<b>49 183</b>
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 284	2 000	2 400	2 884

Izoh: "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCH tomonidan tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda ichimlik suv tarmoqlarini uy xo'jaligigacha yetkaziladigan xonadonlar soniga aniqlik kiritiladi hamda tasdiqlash uchun Vazirlar Kengashiga taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
4-ilova

**2024 — 2026-yillarda davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish orqali ichimlik suv ta'minoti yo'lga qo'yiladigan aholi yashash punktlari  
RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Tuman nomi</b>	<b>Aholi punktlari nomi</b>	<b>Aholi soni</b>
1.	Amudaryo tumani	“Xolimbeg” OFY	7 196
2.		“Qoramom” MFY	4 496
3.		“Tosh qala” MFY	3 288
4.		“Qangli” OFY	3 540
5.		“Oq oltin” OFY	7 620
6.		“Uyshin” MFY	3 440
7.	Chimboy tumani	“Baxitli” OFY Aralbay ovuli	442
8.		“Kenes” OFY Nurxan ovuli	352
9.		“Taza jol” OFY Bajban ovuli	334
10.		“Kenes” OFY Xajibaba ovuli	321
11.	Beruniy tumani	“Tinchlik” OFY	10 365
12.		“Biybozor” OFY	7 050
13.	Qorao‘zak tumani	“Esimezek” OFY “Qoshqarboy” ovuli	468
14.		“Quralpa” OFY Sherimbet ovuli	287
15.		“S.Kamalov” OFY Irgakli ovuli	312
16.	Xo‘jayli tumani	“Mustaqillik” OFY, Axunbabayev ovuli	452
17.		“Samanko‘l” OFY, Karkasha ovuli	248
18.		“Amudarya” OFY, Kamal ovuli	192
19.		“Kulab” OFY, Beshtom ovuli	281
20.	Taxtako‘pir tumani	“Qaraterek” MFY Karamoyin a.p	472
21.		“O‘zbekiston” MFY Lesxoz a.p	320
22.		“Qaraterek” MFY Anna a.p	218

Izoh: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish orqali mazkur ro‘yxatga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Mazkur ro‘yxatdagi loyihalar 2024-yilda amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
5-ilova

**“O‘zsvta‘minot” AJ tomonidan xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar hisobiga  
2026-yilda aholini ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta‘minlash dasturi**

T/r	Loyiha nomi	XMI nomi	Xalqaro moliya instituti mablag‘i (mln.dol)	Erishiladigan natija			
				ichimlik suvi		oqova suv	
				ilk bor ta‘minlanadigan aholi soni	yaxshilanadigan aholi soni	ilk bor ta‘minlanadigan aholi soni	yaxshilanadigan aholi soni
1.	O‘zbekistonning g‘arbiy qismida ichimlik suvi ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi PQ-4271-son qarori)	Osiyo taraqqiyot banki	145,0	211 989	114 148		
<b>Jami 2026-yilda</b>			<b>145,0</b>	<b>211 989</b>	<b>114 148</b>		

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
6-ilova

**Markazlashgan suv ta'minoti qamrovi darajasi past bo'lgan tumanlarda 2024 — 2026-yillarda ichimlik suv tizimlarini rivojlantirish  
dasturining  
YIG'MA PARAMETRLARI**

T/r	Hududlar nomi	Aholi soni	Markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi soni	Foizda	2024 — 2026-yillar				
					Tarmoq (km)	Inshoot (dona)	jami talab etiladigan mablag' (mlrd.so'm)	shundan:	
								respublika budjeti	XMI
<b>Jami:</b>		<b>5 340 682</b>	<b>1 993 241</b>	<b>37,3</b>	<b>4 694,2</b>	<b>212</b>	<b>3 227,3</b>	<b>795,2</b>	<b>2 432,1</b>
1.	Amudaryo tumani	208 572	97 037	46,5	178,9	2	160,2		160,2
2.	Beruniy tumani	201 176	90 839	45,2	154,9	3	146,1		146,1

Izoh: loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ekspertiza xulosalari olingandan so'ng obyektning qiymati va parametrlariga aniqlik kiritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
7-ilova

**2024 — 2026-yillarda iste'molchilarga ichimlik suv uchun hisoblagichlarni o'rnatish  
REJA-JADVALI**

T/r	Hududlar nomi	Suv hisoblagichi bilan ta'minlanadigan iste'molchilar soni	Yillar kesimida		
			2024-yil	2025-yil	2026-yil
	<b>Respublika bo'yicha:</b>	<b>792 090</b>	<b>212 200</b>	<b>274 800</b>	<b>305 090</b>
	<i>shu jumladan:</i>				
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	<b>21 425</b>	5 800	7 200	8 425

Izoh: "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCH tomonidan tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda iste'molchilarga ichimlik suv uchun hisoblagichlar soniga aniqlik kiritiladi hamda tasdiqlash uchun Vazirlar Kengashiga taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
8-ilova

**2024-yilda "O'zsuvta'minot" AJ tizim korxonalarida quyosh panellarini o'rnatish reja-jadvali**

<b>T/r</b>	<b>Hududlar nomi</b>	<b>O'rnatiladigan quyosh panellari quvvati (MVt)</b>	<b>Ishlab chiqariladigan yillik elektr energiya, (mln kVt/s)</b>
<b>Respublika bo'yicha jami:</b>		<b>66,2</b>	<b>144,8</b>
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,7	5,85

Izoh: quyosh panellarini o'rnatish reja-jadvali mahalliy budget mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.  
"Qoraqalpog'iston Respublikasi" MCH tomonidan tizim korxonalarida quyosh panellarini o'rnatish rejasini tuman (shahar) kesimida taqsimlanadi hamda tasdiqlash uchun Vazirlar Kengashiga taqdim etiladi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
9-ilova

**2024 — 2026-yillarda “O‘zsuvta‘minot” AJ tizim korxonalarida mavjud nasoslarni energiya tejamlariga almashtirish reja-jadvali**

T/r	Hududlar nomi	Nasos uskunalari soni	Shu jumladan, yillar kesimida			Iqtisod qilinadigan elektr energiya (mln kVt/soat)
			2024-yil	2025-yil	2026-yil	
<b>Respublika bo‘yicha jami:</b>		<b>2121</b>	<b>426</b>	<b>746</b>	<b>949</b>	<b>186</b>
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	229	45	81	103	20,1

Izoh: mahalliy budgetlar hisobidan moliyalashtiriladi.

“Qoraqalpog'iston Respublikasi” MCH tomonidan tizim korxonalarida mavjud nasoslarni energiya tejamlariga almashtirish reja-jadvali tuman (shahar) kesimida taqsimlanadi hamda tasdiqlash uchun Vazirlar Kengashiga taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
10-ilova

**2026-yilda “O‘zsuvta‘minot” AJ tarkibidagi laboratoriyalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash  
DASTURI**

<b>T/r</b>	<b>Hudud</b>	<b>Laboratoriya</b>	<b>Amalga oshiriladigan ishlar</b>	<b>Talab etiladigan mablag**</b>	<b>Moliyalashtirish manbasi</b>	<b>Amalga oshirish muddati</b>
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Amudaryo tumani hududiy laboratoriyasi	Asbob-uskunalar bilan jihozlash	0,4 mlrd so'm	“O‘zsuvta‘minot” AJ mablag'lari	2026-yil noyabr

Izoh: talab etiladigan mablag'lar miqdori loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgandan so'ng aniqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
11-ilova

**“O'zsuvta'minot” AJ va uning tizim korxonalariga o'tkaziladigan ichimlik suv va oqova suv tizimi obyektlari  
RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Obyekt nomi</b>	<b>Balans saqlovchi</b>	<b>Hudud</b>	<b>Obyekt o'tkaziladigan tashkilot nomi</b>
1.	“Qo'ng'iroq texnik suv ta'minoti” korxonasining suv ta'minoti va oqova suv tizimlari	“Urganchtransgaz” unitar korxonasi	Qoraqalpog'iston Respublikasi	“Qoraqalpoq suv ta'minoti” MChJ

Izoh:

Mazkur obyektlar ushbu korxonalaridagi davlat ulushini kamaytirish va “O'zsuvta'minot” AJdagi davlat ulushi va uning korxonalaridagi “O'zsuvta'minot” AJ ulushini oshirish hisobiga balans qiymatida beriladi.

Mazkur ro'yxatga Respublika muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi qaroriga asosan o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
12-ilova

**“O‘zsuvta‘minot” AJ korxonalarining “Hududiy elektr tarmoqlari” AJga o‘tkaziladigan nimstansiyalari  
RO‘YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Nimstansiya joylashgan inshoot nomi</b>	<b>Soni va quvvati</b>	<b>Balans saqlovchi</b>
1.	Suv inshooti	2 ta 2,5 ming kVA	“Qoraqalpoq suv ta‘minoti” MChJ

Izoh: Mazkur nimstansiyalar “O‘zsuvta‘minot” AJdagi davlat ulushini kamaytirish va “Hududiy elektr tarmoqlari” AJdagi davlat ulushini oshirish hisobiga balans qiymatida beriladi.

“O‘zsuvta‘minot” AJ obyektlari toifalanganligi sababli “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ balansiga topshiriladigan nimstansiyalarga yangi iste‘molchilar ulanmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
13-ilova

**Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ichimlik va oqova  
suv yo'nalishidagi loyihalar doirasida faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardan  
xarid qilinadigan qurilish materiallari, uskuna va jihozlar  
RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Qurilish materiallari, uskuna va jihozlar nomi</b>
1.	Polietilen quvurlar, diametri 32 — 1000 mm
2.	Metall quvurlar, diametri 32 — 1420 mm
3.	Zararsizlantirish uskunalari
4.	Zamonaviy suv hisoblagichlar
5.	Zamonaviy zulfinlar
6.	Yong'in xavfsizligi gidrantlari
7.	Zamonaviy nasos uskunalari
8.	Suv mineralari
9.	Temir-beton quduqlar
10.	Cho'yan lyuk
11.	Transformator
12.	Oqova suv tozalash uskunalari
13.	Kabel mahsulotlari

Izoh: Vazirlar Mahkamasi tomonidan mazkur ro'yxatga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.



Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 7-dekabrda  
442-13-0-Q/23-son qaroriga  
14-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining mas'ul o'rinbosari  
hamda Nukus shahar va tumanlar hokimlarining ichimlik suv ta'minoti va  
oqova suv sohasidagi  
QO'SHIMCHA VAZIFALARI**

1. O'z hududidagi suv ta'minoti va oqova suv sohasidagi investitsiya loyihalarini ishlab chiqishdan boshlab o'z vaqtida ishga tushirishgacha javobgar hisoblanadi.
2. Hududiy suv ishlab chiqarish va suv ta'minoti tashkilotlari moddiy-texnik bazasini va moliyaviy holatini yaxshilash, shu jumladan, debitor va kreditor qarzdorligini qisqartirishga hamda iste'molchilarga hisoblagichlar o'rnatish parametrlarining bajarilishiga shaxsan mas'ul hisoblanadi.
3. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo'yicha xizmatlar uchun tariflar mahsulot tannarxiga kiritilgan xarajatlar, tizim obyektlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, moliyaviy xarajatlar, soliqlar (suvning texnologik jihatdan normativdan yuqori darajada sarflanganligi va yo'qotilganligi uchun soliqlardan tashqari) va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, "O'zsuvta'minot" AJning saqlash xarajatlari hamda tashkilotlar rentabellik darajasidan kelib chiqqan holda tariflarning joriy etilishini hamda har yili kamida bir marta qayta ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.
4. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy moliya tashkilotlari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarni ko'rib chiqadi va mablag'larning iqtisod qilinishini ta'minlaydi.
5. Tuman va mahallalarning ichimlik suv va oqova suv obyektlarini davlat-xususiy sheriklik asosida berish bo'yicha takliflarni "O'zsuvta'minot" AJ bilan birgalikda ishlab chiqadi hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga kiritadi;
6. Hududiy suv ishlab chiqarish va suv ta'minoti tashkilotlari inshoot va obyektlarida energotejamkor uskunalarni hamda muqobil energiya manbalarini o'rnatish orqali ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirilishini ta'minlaydi.
7. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda "O'zsuvta'minot" AJ tizim korxonalarining tuman (shahar) bo'limlarini bino bilan ta'minlaydi.
8. Amalga oshirilgan choralarning dastlabki, oraliq va yakuniy natijalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashiga har chorakda hisobot berib boradi.
9. Hududiy suv ishlab chiqarish va suv ta'minoti tashkilotlari tomonidan faoliyatiga xos bo'lmagan barcha xizmatlar faqat haq evaziga amalga oshirilishini ta'minlaydi.